

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

5-maxsus  
son (5-jild)

**2025**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*№ 5/5 (5) - 2025*

## **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

## **ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

#### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

*22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

## **OAK Ro‘yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

### **Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Abdullaev Ulug‘bek Saydanovich</i> O‘RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDAGI ETNIK NOMLAR .....	10-14
<i>Shukurillayev Yunus Asrorovich</i> BUXORO AMIRLIGIDA CHEGARALARNI QO‘RIQLASH, QOROVULLIKNI O‘TASH VA XAVFSIZLIKNI TA‘MINLASH MASALALARI TAHLILI .....	15-19
<i>Rahmankulova Adolat Xushbakovna</i> ИСТОРИЯ ГРЕЧЕСКОЙ ДИАСПОРЫ УЗБЕКИСТАНА: СПЕЦПЕРЕСЕЛЕНЦЫ И ПОЛИТИЧЕСКИЕ ЭМИГРАНТЫ .....	20-25
<i>Xusanov Xabibullo Hakimovich</i> O‘ZBEKISTON MILLATLARARO MUNOSABATLARIDAGI ZIDDIYATLI VAZIYAT VA MILLIY MADANIY MARKAZLARNING TASHKIL QILINISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI .....	26-30
<i>Toshov Kamoliddin, Xurramova Sabrina Abdurashidovna</i> THE PROBLEM OF CHILD NEGLECT DURING THE SECOND WORLD WAR .....	31-38
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i> THE FORMATION OF THE PRESS OF THE KhPSR AND THE ESSENCE OF SOCIAL PROBLEMS IN IT.....	39-42
<i>Nazirov Baxtiyor, Mo‘minov Nodirbek Botir o‘g‘li</i> IMOMQULIXON DAVRI ASHTARXONIYLAR DAVLATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY VA HARBIY-SIYOSIY HAYOTI .....	43-48

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

<i>Исламтудинов Вадим</i> СОСТОЯНИЕ И НАПРАВЛЕНИЯ СНИЖЕНИЯ БЕДНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	49-54
<i>Melibaeva Gulxon Nazrullayevna</i> BENCHMARKING KICHIK INNOVATSION BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA SAMARALI VOSITASI SIFATIDA.....	55-65
<i>Ульмас Ибрагимов</i> ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОЙ МОДЕЛИ МАЛОГО БИЗНЕСА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	66-75

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

<i>Salomova Hakima Yusupovna</i> ME‘YOR KATEGORIYASINING BIOSFERANI ASRASHDAGI AMALIY AHAMIYATI.....	76-83
<i>Djumaniyozova Dilfuza, Ibraximova Dilorom</i> YURIDIK TA‘LIM VA YURIDIK KLINIKA FAOLIYATIDA AXLOQIY TARBIYA.....	84-90
<i>Djo‘raev Anvar Muxamadiyevich</i> IJTIMOIIY BILISH DARAJALARINING MEZONLARI .....	91-96

<i>Каримова Гулчехра Самадовна</i> ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ЗАДЕРЖКИ ПОЛОВОГО РАЗВИТИЯ У ПОДРОСТКОВ: МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ СИНТЕЗ МЕДИЦИНСКИХ ДАННЫХ И АНТРОПОЛОГО- ЭТИЧЕСКИХ.....	97-101
<i>Гайбуллаев Жавлон Шавкатович</i> ДЫХАНИЕ КАК ЗЕРКАЛО ДЕТСТВА: ФИЛОСОФСКИЙ ВЗГЛЯД НА РЕЦИДИВИРУЮЩИЕ РЕСПИРАТОРНЫЕ ИНФЕКЦИИ.....	102-105
<i>Yusupaliyev Orzimurod Odilovich</i> YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI.....	106-110
<i>Taylyakova Feruzaxon Sultanovna</i> O'ZBEKISTONDA OILAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....	111-116
<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> TEXNIK TARAQQIYOT AXLOQIY-STRATEGIK RESURS SIFATIDA.....	117-120
<i>Yarashov Sarvar Norqul o'g'li</i> SHAXSNING SHAKLLANISHIGA AXLOQIY IDEALLAR VA JAMIYATDA MAVJUD QADRIYATLARNING TA'SIRI .....	121-125
<i>Shokirov Toxirjon, Maxmudov Shoxrux</i> ZARDUSHTIYLIK DININING VUJUDGA KELISHI VA UNDA MADANIYAT VA SAN'AT FALSAFASI.....	126-130
<i>Axmedova Dilbar, Shavkatova Shirin</i> ПЕРВЫЕ ШАГИ В МИКРОМИРЕ: ФИЛОСОФСКИЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ДИСБИОЗЕ И АЛЛЕРГИИ У МЛАДЕНЦЕВ.....	131-135
<i>Kurbanbaeva Ulbosin Jumag'aliyevna</i> EKOLOGIK TARBIYANING GUMANISTIK MOHIYATI.....	136-139
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Muqutova Dilafruz</i> IRFONIY SAYRU SULUKNING JA'FAR MUHAMMAD TERMIZIY SHE'RIYATIDAGI MODERNISTIK TASVIRI VA TALQINI.....	140-147
<i>Xo'jamqulov Anvar, Tog'ayeva Shoxnoza</i> TAXAYYUL OLAMI TAHLILLARI.....	148-159
<i>Murodova Iroda, Khamidov Tokhirjon</i> ANALYSIS OF THE LINGUOCOGNITIVE ASPECT OF THE SEMANTICS OF METAPHORICAL INNOVATIONS .....	160-163
<i>Mamatova Feruza Maxammadovna</i> FENOMENOLOGIYA, FENOMEN VA ULARNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI .....	164-168
<i>Burxonova Gulmira Olimjon qizi</i> TURLI TIZIMLI TILLARDA SOTSIOMADANIY BIRLIKLAR SHAKLLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TASNIFI .....	169-172
<i>Berdiqulova Shaxnoza, Ruzmatova Gulnara</i> BOG'LOVCHILAR VA TINISH BELGILARINING PRAGMATIK KUCHI: O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA .....	173-177
<i>Musurmonova Barchinoy Hasan qizi</i> FORS MATNSHUNOSLIGI TARAQQIYOTINING TARIXIY ILDIZLARI.....	178-182

<i>Яркулова Фотима Усмановна</i> ОДНОРОДНЫЕ ЧЛЕНЫ ПРЕДЛОЖЕНИЙ.....	183-186
<i>Jo'raqulova Rayhon Xolboyevna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA LEKSIK BIRLIKLAR OBRAZ VA RAMZLARNI YUZAGA KELTIRUVCHI VOSITALAR.....	187-190
<i>Musoeva Hayitgul Urokovna</i> THE LINGUO-STYLISTIC ANALYSIS OF THE WORD "HEART" IN ENGLISH LANGUAGE BASED ON THE NOVEL "PRIDE AND PREJUDICE" .....	191-195
<i>Yuldasheva Kamola</i> SINXRON TARJIMA JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN PSIXOFIZIOLOGIK STRATEGIYALAR.....	196-202
<i>Matkarimova Malika Oybek qizi</i> HOW TO TEACH ENGLISH USING SIMPLE SCIENCE EXPERIMENTS.....	203-206
<i>Kamola Hatamova</i> HUUJATCHILIK TARAQQIYOTINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....	207-210

## **12.00.00 - YURIDIK FANLAR**

<i>Uralov Sharof Urazaliyevich</i> PROBATSIIYA INSPEKTORLARIGAMA MA'MURIY BAYONNOMA TUZISH VAKOLATINI BERISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI .....	211-216
<i>Mamatmurodov Farrux</i> METHODS OF RESOLVING DISPUTES ARISING FROM ISLAMIC FINANCE SERVICES. INTERNATIONAL EXPERIENCE .....	217-222
<i>Mutalipova Lola Farxhadovna</i> SMART-KONTRAKTY I BLOKCHAYN: VYZOVY DLYA DOGOVORNOGO PRAVA V RESPUBLIKE UZBEKISTAN.....	223-234
<i>Normurodova Aziza Azimjon kizi</i> PRAVOVOE REGULIROVANIYE SEKSUALNOGO NASILIYA S ISPOLZOVANIEM .	235-241
<i>Abdullayeva Parvina Baxrilloevna</i> RAQAMLI PLATFORMALARDAGI BANDLIKNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH .....	242-246

## **13.00.00 - PEDAGOGIKA FANLARI**

<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i> RAQAMI IQTISODIYOT SHAROITIDA QORAQALPOQ XALQ AN'ANALARIDAGI MAVJUD PEDAGOGIK USULLAR TRANSFORMATSIYASI.....	247-252
<i>Namozova Dilorom Tursunovna</i> MUSIQA TA'LIMIDA TALABALARDA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MOHIYATI.....	253-261
<i>Davydova Ruffina Arturovna</i> ROL' GUMANNOY PEDAGOGIKI V PREODOLENIYE AGRESSII I OTCHUZHDENIYA SREDI SHKOL'NIKOV .....	262-266
<i>Gaziev Baxromjon Valievich</i> OT SPORTIDA MALAKALI CHAVANDOZLARNI TAYYORLASH MUAMMOLARI .....	267-273

<i>Toshtemirova Mohichehra G'olibjon qizi</i> DIZAYN TA'LIMINING XALQARO TAJRIBASI: O'QUV DASTURLARI VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI.....	274-279
<i>Rakhmonova Dilnura Saidovna</i> TEXNIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING KREATIV FIKRLASHINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI: AMALIYOT VA TAJRIBA.....	280-286
<i>Yakubova Barno Baxtiyorovna</i> MUSTAQIL VA IJODIY ISHLASH FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH.....	287-290
<i>Rixsiboyev Behzod Alisherovich</i> IJTIMOIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MADANIY PLYURALIZMNING O'RNI .....	291-295
<i>Islamova Moxichexra Bekmurzayevna</i> TALABLARNI TANQIDIY FIKRLASHGA UNDOVCHI O'QITUVCHI STRATEGIYALARI .....	296-301

**Received:** 2 June 2025  
**Accepted:** 15 June 2025  
**Published:** 30 June 2025

*Article / Original Paper*

## **THE PEDAGOGICAL ESSENCE OF DEVELOPING CREATIVE ABILITIES IN STUDENTS IN MUSIC EDUCATION**

**Namozova Dilorom Tursunovna**

Associate Professor, Department of Music Education and Culture  
Faculty of Pedagogy, Psychology, and Art Studies  
Fergana State University

**Abstract.** Today, the development of creative competence among music teachers, enhancing their professional skills and creative abilities, is highly relevant. Modern education requires the improvement of teaching methods and tools, as well as the introduction of new pedagogical communication approaches. Creativity is the ability to generate new ideas, think beyond conventional frameworks, and make original decisions. In pedagogical practice, preparing teachers based on a competent approach and developing their creative potential is crucial. This process emphasizes promoting national culture in music education, utilizing modern technologies, and applying individualized approaches. In accordance with the tasks outlined in presidential decrees, additional measures are being taken to improve the quality of music education and expand students' music-related skills.

Thus, developing creative competence is not only a matter of professional growth but also a key factor contributing to the cultural and educational progress of society. In this process, teachers must regularly update their knowledge, apply innovative methods, and adopt an individualized approach to students to enhance their creative potential.

**Keywords:** music education, creative abilities, students, pedagogical essence, creative development, educational process.

---

## **MUSIQA TA'LIMIDA TALABALARDA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MOHIYATI**

**Namozova Dilorom Tursunovna**

Farg'ona davlat universiteti  
Pedagogika, psixologiya va San'atshunoslik fakulteti  
"Musiqiy ta'lim va madaniyat" kafedrasida dotsenti

**Annotatsiya.** Bugungi kunda musiqa o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish, ularning kasbiy mahorati va ijodiy ko'nikmalarini shakllantirish juda dolzarbdir. Zamonaviy ta'limda o'quv metodlari va vositalarini takomillashtirish, yangi pedagogik kommunikatsiya usullarini joriy etish zarurati ortmoqda. Kreativlik – bu yangi g'oyalarni yaratish, an'anaviy fikrlashdan chiqib, original qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. Pedagogik faoliyatda kompetent yondashuv asosida o'qituvchilarni tayyorlash, ularning kreativ salohiyatini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Bu jarayonda musiqa ta'limida milliy madaniyatni targ'ib qilish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va individual yondashuv muhim o'rin tutadi. Prezident qarorlarida belgilangan vazifalarga muvofiq, musiqa ta'limi sifatini oshirish va talabalarning musiqa bilan bog'liq ko'nikmalarini kengaytirish uchun qo'shimcha choralar ko'rilmogda.

Shunday qilib, kreativ kompetentlikni rivojlantirish nafaqat kasbiy kamolot, balki jamiyatning madaniy-ma'rifiy taraqqiyotiga hissa qo'shuvchi muhim omildir. Bu jarayonda o'qituvchilar o'z bilimlarini muntazam yangilab borishi, innovatsion metodlarni qo'llashi va talabalarga individual yondashuvi orqali ularning ijodiy salohiyatini oshirishlari zarur.

**Kalit so'zlar:** musiqa ta'limi, ijodiy qobiliyatlar, talabalar, pedagogik mohiyat, ijodiy rivojlanish, ta'lim jarayoni.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI5Y2025N42>

**Kirish.** Bugungi kunda bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslarini modernizatsiyalash, o'qitish metodlari, vositalarini va tashkil etish shakllarini takomillashtirish zarurati yanada kuchaymoqda. Shuning uchun mutaxassislar tayyorlash, xususan, yangi davrga mos o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar yaratish va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, o'quv muassasalarini zamonaviy pedagogik-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlash, ta'lim sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Shu kesimda musiqa ta'limida zamonaviy musiqa ta'limining keng qamrovli va chuqur ilmiy-metodik poydevorini ishlab chiqish jiddiy masalalardan bo'lib qolmoqda. Buning uchun esa, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kreativ kompetentligini, kasbiy mahorati va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish talab etilmoqda.

Hozirgi vaqtda pedagogik faoliyatga qo'yilayotgan talablar yaratilgan malaka talablarining tizimli-faoliyatli yondashuvdan yangicha, kompetent yondashuv asosida tuzilishiga erishish shartini qo'ymoqda. Zamonaviy jamiyatda ma'lum tizimga asoslangan yoki aniq me'yorlar bilan belgilab qo'yilgan sharoitda shaxs o'zini kreativ jihatlarini rivojlantira olmaydi. Shu ma'noda shaxsda kreativ sifatlar namoyon bo'lishi uchun yangicha muhit, yetarlicha e'tibor va munosabat lozim. Bu esa ta'limga kompetentli yondashuvni tatbiq etishni taqozo etadi.

**Materiallar va metodlar.** Kreativlik – bu shaxsning yangi g'oyalarni yaratishi, tafakkurning an'anaviy qoliplardan chetga chiqib, o'ziga xos, original qarorlar qabul qilishga qodirligi sifatida tavsiflanib, mazkur atamaga ilk bora 1922-yilda D.Simpson tafakkurning nostandart usuli, deb ta'rif bergan[1]. Shuningdek, musiqashunoslardan O.Ibrohimov, O.Malkeeva, O.Matyoqubov, A.Nazarov, R.Yunusov, A.Hoshimov kabi tadqiqotchilarning ilmiy-nazariy asarlari musiqa nazariyasi yo'nalishida katta ahamiyatga ega bo'lgan ishlar sifatida e'tiborga molikdir. Bu tadqiqotchilar o'zbek musiqashunosligiga asos solgan mutafakkirlarimizning fundamental asarlarni o'rganib chiqib, ular ilmiy-amaliy yoritishga harakat qilganlar.

Faylasuf olimi L.Bobaeva “Философско-эстетические основы восточной народно-профессиональной музыки” nomli tadqiqotida sharq musiqasining tarixi, shakllanishi va rivojining falsafiy jihatlarini aniqlashga harakat qiladi va bu borda ko'plab olimlarning ilmiy ishlarini tahlil qiladi. Tadqiqot nafaqat falsafa fanlari sohasida, balki ta'lim tizimida o'zbek musiqasi tarixining pedagogik ildizlarini musiqiy madaniyat sohasini o'rganishda ham o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi[2].

**Muhokama va natijalar.** Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, kreativlik barcha sohalarning ajralmas qismi, yo'nalishi va strategik ahamiyatga ega jihati sifatida qaraladi. Shu ma'noda oliy pedagogik ta'lim tizimida talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy mexanizmi sifatida o'quv jarayoni va uni talaba shaxsiga yo'naltirish nazarda tutiladi.

Fikrimizcha, kreativlik tushunchasi intellekt bilan aloqador jarayondir, “kreativlik aqlning eng yuqori shaklidir”, negaki u o'rganilgan bilimlarni tahlil etish, foydalanishdan tashqari, yangi fikr va g'oyalarni, innovatsion bilimlarni yaratishni ham o'z ichiga oladi.

Biz tomonimizdan o'rganilgan abadiyatlar, tahlil etilgan tadqiqot ishlari shuni ko'rsatdiki, yuqori darajadagi kreativ shaxslar namunali intellektga ega bo'lishi mumkin, ammo yuqori intellekt egalari har doim ham kreativ bo'lolmaydi.

Umuman olganda shaxsni kreativlik darajasiga ko'tarilish uchun boshqalardan farqli holatda qo'shimcha mustaqil izlanishi, tasavvur va qobiliyatlarini rivojlantirishga intilishi,

tarixiy va zamonaviy adabiyotlarni ijodiy, ilmiy jihatdan erkin tahlil etishi, dunyo o'zgarishlaridan xabardor bo'lishi, buning uchun ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlaridan unumli foydalanishi, o'quv jarayonida erkin fikrlar yuritishi, yangi bilimlarni qiziqish hamda ishtiyoq bilan o'zlashtirishi, o'z-o'zini nazorat qilib borishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-sonli qaroriga ko'ra, 2022—2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq, 2022-2023 o'quv yilidan boshlab ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish uchun milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasida kuy ijro etish ko'nikmalari o'rgatilishi, musiqa fani uchun haftasiga belgilangan bir o'quv soati hamda unga qo'shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish amaliy to'garaklari va fakultativ darslari o'tkazilishi, musiqa fani uchun ajratilgan o'quv soatlari doirasida "Hayotimga hamrohdir cholg'u" shiori ostida cholg'u ijrochiligi dars mashg'ulotlari yo'lga qo'yilishi, notalar to'plamlari va maxsus musiqiy adabiyotlar bilan ta'minlash umumta'lim maktablarini darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash tizimiga kiritilishi, musiqa fani o'qituvchilarini kamida uchta milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etishga o'rgatish xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi doirasida amalga oshiriladi, bunda qayta tayyorlash (malaka oshirish) kurslarida mashg'ulot olib borish uchun madaniyat va san'at sohasi vakillari shartnoma asosida jalb etilishi ko'zda tutilgan.[3]

Kreativ qobiliyatlar — bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kamoloti va faoliyat samaradorligida muhim o'rin tutuvchi omillardan biri bo'lib, ularning xohish — istagi tufayli emas, jamiyatning qonuniy ehtiyojlaridan kelib chiqadigan zaruriyatdir. Kreativ kompetentlikni rivojlantirishga e'tibor kecha yoki bugun paydo bo'lgani yo'q. Bugungi davrda ham bo'lajak musiqa o'qituvchilarining borliqdagi go'zallikka, nafosat olamiga olib kirish asosida zamonaviy kadrlar avlodini yuzaga keltirish juda muhim pedagogik vazifalardandir. Chunki kreativ kompetentlik tarbiyasi ijtimoiy hayotimizning barcha sohalariga tegishlidir. Bu orqali bo'lajak musiqa o'qituvchilarining ijodkorligini oshirish, musiqiy layoqatini rivojlantirish va estetik munosabatga kirishish qobiliyatini o'stirish mumkin bo'ladi. Bu esa, o'quvchilarning musiqiy tafakkuri, san'atni tushunishi va unga bo'lgan estetik didini o'sishiga olib keladi.

Oliy ta'limda bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish mazmunini bir qator ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va pedagogik omillar bilan belgilanadi. Shuning uchun ham, pedagogik ilm-fanning zamonaviy darajasi bo'lgan bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisining ijodiy faoliyatga tayyorgarlik jarayonining alohida jihatlarini o'rganish uchun integral yondashuv zarur. Shuning uchun ham, hozirda musiqa ta'limi modernizatsiyalashib, yangi pedagogik yondashuv va shakllarni o'z ichiga olib, rivojlanib bormoqda. Bular onlayn-dars mashg'ulotlardan tashqari tanlov loyihalariga qaratilayotgan e'tibordan ham ko'rish mumkin.

Musiqa ta'limi bugungi kunda ta'lim tizimining muhim bir qismi sifatida ajralib turadi. Musiqa o'qituvchilari nafaqat musiqiy bilimlarni berish, balki talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydilar. Ularning kasbiy kompetentligi va kreativligi ta'lim jarayoniga bevosita ta'sir etadi, shuning uchun ushbu fanni o'qitishda bir necha ustuvor yo'nalishlarga e'tibor qaratish zarur.

Birinchiidan, musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda nazariy bilimlar bilan amaliy ko'nikmalarni birlashtirish kerak. O'qituvchi nafaqat musiqiy nazariyalarni bilishi, balki ularni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Bu esa talabalarni musiqiy asarlarni ijro etishda, kompozitsiya yaratishda va musiqiy tahlil qilishda yordam beradi.

Ikkinchiidan, kreativlikni rivojlantirish uchun innovatsion usullarni qo'llash muhimdir. O'qituvchi darslarda zamonaviy texnologiyalarni, multimedia vositalarini va interaktiv metodlarni qo'llab-quvvatlashi kerak. Bu orqali talabalar musiqa bilan yanada yaqinroq tanishadilar va o'z ijodkorliklarini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Uchinchiidan, musiqa o'qituvchisi talabalar bilan individual ishlashga e'tibor berishi lozim. Har bir talabaning qobiliyatlari va qiziqishlari har xil bo'lganligi sababli, ularning shaxsiy yondashuvi juda muhimdir. O'qituvchi talabalarning kuchli tomonlarini aniqlab, ularga mos ravishda darslarni tashkil etishi kerak.

To'rtinchiidan, musiqa madaniyatini targ'ib qilish va rivojlantirishda jamoaviy faoliyatlar katta ahamiyatga ega. Guruhli ijrolar, ansambllar va orkestrlar tashkil etilishi talabalar orasida hamkorlik ruhini uyg'otadi. Bunday faoliyatlar orqali talabalar nafaqat musiqa ijro etishni o'rganadilar, balki jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar.

Oxirgi jihat sifatida, musiqaning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish zarur. Musiqa faqat san'at emas, u inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. O'qituvchi talabalarni musiqaning ijtimoiy rolini tushunishga undashi va ularni turli madaniyatlar bilan tanishtirishi lozim.

Demak, "Musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va kreativligi" fanini o'qitishda ustuvor yo'nalishlar nafaqat nazariy bilimlarga e'tibor berishni balki zamonaviy pedagogik usullarni qo'llashni ham talab qiladi. Talabalarni rag'batlantirib, ularning ijodkorligini ochishga yordam beradigan muhit yaratish – bu hozirgi zamon musiqa o'qituvchilarining eng asosiy vazifalaridan biridir.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilari – bakalavrlar umumiy o'rta ta'lim maktablarining «Musiqa madaniyati» fanidan o'tiladigan har bir mavzuni talabalik davridayoq mukammal o'rganib borishlariga jiddiy e'tibor berishlari zarur.

Musiqiy ta'limda kreativ yondashuv ko'p qirrali jarayonlarni o'z ichiga oladi. Xususan, musiqiy ta'lim nazariyasiga bag'ishlangan didaktik risolalar va ilmiy majmualarni o'rganish bo'lajak musiqa o'qituvchisiga dirijyor, cholg'uchi, xonanda va jamoa rahbari sifatida shakllanish bilan bog'liq bo'lgan fanlarni o'rganishda kreativ yondashuv muhim ahamiyatga molik yo'nalish hisoblanadi.

Musiqa bo'yicha mutaxassis tayyorlash turli faoliyat turlarini o'z ichiga oladigan fanlarni integratsiyalash yo'li bilan foydalanishni taqozo etadi. Ya'ni bunda ixtisoslik fanlari o'rtasidagi ilmiy aloqadorlikni ta'minlash va barcha fanlarga taalluqli qadriyatlarga umumiy tarzda yondashuvning bir butun yo'nalishini aniqlash, ya'ni uyg'unlashtirish kerak bo'ladi. Barcha musiqa fanlari mazmuni doimiy tarzda yangilanib borar ekan, uni o'rgatish usullari takomillashib, o'zgarib boradi. Ayniqsa, pedagogika sohasida bo'layotgan muhim o'zgarishlar – zamonaviy, axborot va innovatsion texnologiyalarning ta'lim tizimiga kirib kelishi har bir fan mutaxassisidan o'z kasbiga ijodkorlik bilan munosabatda bo'lishni talab etadi.

Jahon madaniy hayoti raqobatbardosh kadrlarni yetishtirib borish zaruratini taqozo etayotgan bir davrda faqat milliy qadriyatlarni o'rganishning o'zi kifoya qilmaydi, balki ayni paytda umumbashariy qadriyatlarni ham o'rganib borish zarurdir. Bu borada milliy musiqiy

qadriyatlarimizni umumjahon madaniyatiga aylantirish, unga qiziqish uyg'otish va uni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni uyg'ota olishga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, musiqa mutaxassisliklari oldida turgan muammolarni uch xil yo'nalishga ajratish mumkin:

1. Milliy musiqiy qadriyatlarimizni o'rganish.
2. Umumbashariy musiqiy qadriyatlarni o'rganish.
3. Milliy musiqiy qadriyatlarimizni umumbashariy qadriyatlar darajasiga etkazishga harakat qilish.

Musiqiy ta'lim jarayonida o'qitiladigan fanlar ham xususiy, ham umumiy xususiyatlarga ega. Xususan, bevosita kasbga tayyorlovchi fanlarning har biri o'z xususiyati va o'z metodikasiga ega. Binobarin, "Cholg'u ijrochiligi", "Vokal" (ashulachilik) va "Dirijyorlik" fanlaridan mashg'ulotlar yakka tarzda olib boriladi. Unda har bir talabaga ikki kishi dars beradi. Ulardan biri o'qituvchilik qiladi va ikkinchisi (ya'ni konsertmeyster) esa asarni fortepianoda (yoki biron o'zbek cholg'u asbobida) chalib, jo'rnavozlik qiladi.[4]

Ayni paytda bu fanlar o'zaro umumiylik xususiyatiga ham ega. Masalan, yakka tarzda o'rganiladigan asarning bastakori, uning ko'p qirrali ijodi, "Musiqa tarixi" darsida ham o'rganiladi. Shuningdek, o'qitiladigan barcha fanlar o'rtasida ham ilmiy aloqadorlik mavjud bo'lib, allomalar ijodiga kreativ yondashuv ular uchun ham ahamiyatlidir. Masalan, Abu Ali ibn Sinoning ko'p qirrali ijodi, pedagogik qarashlari "Umumiy pedagogika", "Musiqa pedagogikasi", "Umumiy psixologiya", "Musiqa psixologiyasi", "Musiqa tarixi", "Maqom asoslari", "Qo'shiqchilik asoslari" fanlarida ham o'rganiladi. Bastakor Mustafo Bafoevning Abu Ali ibn Sino she'rlari asosida yaratgan "Freski" (lavhalar) asarlar majmuasidan faqat xor asarlari sifatida emas, balki "Vokal", "Solfedjio", "Fortepiano", "Xor aranjirovkasi" darslarida ham foydalansa bo'ladi. Demak, allomalar ijodiga kreativ yondashuv faqat bir fan bo'yicha emas, balki kompleks tarzda munosabat sifatida ahamiyatlidir.

Musiqiy ta'lim jarayoni ham nazariya, ham amaliy jihatdan bilimlar majmuasini o'ziga birlashtiradi va talabani yetuk mutaxassis sifatida tayyorlaydi. "Elementar musiqa nazariyasi", "Garmoniya", "Musiqa shakli", "Polifoniya", "Musiqa adabiyoti va tarixi" fanlari bo'lajak musiqa o'qituvchisini nazariy bilimlar bilan qurollantirsa, "Cholg'u ijrochiligi", "Vokal", "Xalq qo'shiqchiligi", "Dirijyorlik", "Maktab repertuari", "Xor", "Ansaml", "Orkestr", "Solfedjio" kabi amaliy fanlar talabani bevosita amaliyotga tayyorlab boradi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchisi quyidagi faoliyat turlariga tayyor bo'lib boradi:

- u bilimlarni metodologik asosga tayangan holda egallaydi;
- musiqa o'qituvchisi ko'p qirrali vazifalarni bajara oladi;
- musiqa o'qituvchisi har bir sinf uchun xor rahbari – dirijyor bo'ladi;
- u yaxshi sozanda va kuylarni maromiga etkazib chala oladi, o'quvchilar ijrosiga jo'rnavozlik qiladi;
- yaxshi vokalist, kuylash sirlarini mukammal egallaydi va professional darajada kuylay oladi;
- talabalar oldiga mukammal vazifalarni qo'ya oladi va uning yechimini topishning yo'l-yo'riqlarini ko'rsatib beradi;
- uning bajarayotgan ishlari aniq nazariy bilimga asoslangan va amaliyotga yo'naltirgan bo'ladi;
- asarlarni kuylatishda bevosita emotsionallikka erishadi;

- har bir matnni o‘rganganda xato va kamchiliklarni aniq aytib bera oladi va uni tezda tuzatish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsata oladi, faollarni rag‘batlantirib boradi va boshqalarni harakatga keltiradi;
- kuylaganda yoki chalganda mustaqil faoliyat ko‘rsata oladi;
- barcha faoliyat turlarida talabalarning ijodiy faolligi va mustaqilligini talab qiladi;
- xususan, xor bilan ishlanganda rahbarlik xususiyatini amalda sinab ko‘radi va dirijyorlik darslariga maxsus tayyorgarlik ko‘rib boradi;
- bilim berishning mazmunini yaxshi bilib olgan holda, uni o‘rgatish metodikasini o‘zlashtira oladi;
- «Dirijyorlik» fani bo‘yicha talabalar o‘quvchilarga etkazish uchun didaktik materiallardan iborat boy bilim zaxirasiga ega bo‘ladilar;
- bilimlarni o‘quvchilarga singdirish texnikasi bo‘yicha ko‘nikma va malakaga ega bo‘ladi;
- o‘quvchi o‘zini tutishi, estetik ko‘rinishi, etik jihati, muomala madaniyati dirijyorlik texnikasiga ega bo‘lishi va intellektual jihatdan mukammallikka erishgan bo‘lishi lozim;
- ish jarayonida ularni har tomonlama tarbiyalab borish, har bir ishga kreativ yondashuv, qilayotgan har bir ishining qadriyati tomonlarini hisobga olib borish, o‘quvchilarda o‘z faniga va berayotgan bilimiga hurmat bilan qarash, ijobiy munosabatni shakllantira olish talab etiladi.

Musiqqa ta‘limi jarayoni talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi bevosita muloqot orqali amalga oshiriladi. Garchi o‘qitish jarayoni o‘qituvchi tomonidan boshqarilib borilsa-da, orada tez-tez boshqaruvchilik rolini talabaga ham berib borish lozim. Shundagina talaba fan asoslarini mustaqil ravishda ongli idrok qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Dars jarayoni faqat nazariy bilimlarni talabaga singdirishdan iborat bo‘lib qolmay, u talabalarni amaliy jihatdan ham dars jarayoniga aralastirib borishni talab etadi. Xususan, yakka tartibda o‘tiladigan «Dirijyorlik», «Cholg‘u ijrochiligi», «Vokal» kabi fanlar asosan dialog tarzida olib boriladi. Bunda o‘qituvchi ko‘rsatib beradi va bu ko‘rsatmani shu zahotiy oq bajarishga kirishadi. Albatta, talaba dastlab bu ko‘rsatmalarni amaliy jihatdan tezda bajara olmaydi. O‘qituvchi yo‘l-yo‘lakay xatolarni tuzatib boradi. Har bir asar qismlari mayda-mayda bo‘laklarga ajralib, qayta-qayta takrorlab boriladi. Shuningdek, o‘qituvchi asarning ma‘lum qismini ko‘rsatib bergach, uning yangi qismini mustaqil tayyorlab kelish vazifasini topshiradi. Darsda o‘qituvchi ko‘rsatmasi asosida, uyda mustaqil tayyorlash natijasidagina asarlarni ijro etish malakasi shakllanadi, asta-sekin uquv paydo bo‘ladi va u ham o‘qituvchi singari ma‘lum texnikani egallab olishga erishadi.

Bugungi kunda musiqiy ta‘lim berish jarayoni barcha fanlar singari yangi pedagogik texnologiyalar asosida olib borilmoqda. Talabaga beriladigan bilim intensiv ravishda amalga oshirilmoqda. Bu, o‘z navbatida, talabadan katta kuch-g‘ayrat, iqtidor, uquv va diqqat — e‘tibor talab etadi. Faqat ixtisoslik fanlari jarayoni emas, balki boshqa fanlarda ham talabalarga chuqur bilim berish talab etiladi. Barcha fanlarni milliy qadriyatlarga tayangan holda, o‘tgan ajdodlar tajribasidan, tarixiy manbalardan keng foydalangan holda olib borish, xususan musiqqa allomalarining bilim olishga bo‘lgan munosabati, fan taraqqiyotiga qo‘shgan hissalarini, sharqona uslublarni yaratganligi va qimmatli manbalarini meros qilib qoldirganligi haqida talabalarga axborot berib borish, shu yo‘l bilan ularning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish kerak bo‘ladi.

Buxorolik musiqqa namoyandalarini o‘rganish jarayoni, har bir fan xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, turli shaklda bo‘lishi mumkin. Masalan, “Dirijyorlik” darslarida Abu Ali ibn Sino

she'riyatiga bevosita murojaat qilish mumkin. Bu borada bastakor Mustafo Bafoevning Abu Ali ibn Sino g'azallariga bastalangan «Freski» («Lavhalar») asarini o'rganish jarayonida uning serqirra ijodi haqida talabalarga bilim berib borish zarur bo'ladi.

“Vokal” darslarida esa Abu Ali ibn Sinoning ovoz hosil qilish, ovozni asrash, ovozni ravon va shirali qilish yo'llari haqidagi fikrlaridan o'qituvchilar foydalanishlari mumkin. “Cholg'u ijrochiligi” bo'yicha dars o'tish jarayonida beriladigan allomaning turli cholg'u sozlarida chala olgani, buyuk ishlar qatorida musiqa haqida risolalar yozib qoldirgani haqidagi ma'lumotlar musiqiy merosga kreativ yondashuvning o'ziga xos namunasi. Ayniqsa, chang cholg'usida surunkali chalish orqali bemorlarni davolagani uning ijodiga bo'lgan hurmat-e'tiborni yanada kuchaytiradi.

**Xulosa.** Kreativlik atamasini o'rganish bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar amalga oshirilgan va bu izlanishlar nazariy-amaliy jihatdan ma'lum natijalarga olib kelgan bo'lsa-da, kreativlikning yagona va izchil nazariyasi hali ham mavjud emas, ya'ni ko'p tadqiqotchi-olimlar tomonidan turli xil ta'riflar va qarashlar mavjudligi kelib chiqadi.

Hozirgi vaqtda pedagogik faoliyatga qo'yilayotgan talablar yaratilgan malaka talablarining tizimli-faoliyatli yondashuvdan yangicha, kompetent yondashuv asosida tuzilishiga erishish shartini qo'ymoqda. Zamonaviy jamiyatda ma'lum tizimga asoslangan yoki aniq me'yorlar bilan belgilab qo'yilgan sharoitda shaxs o'zini kreativ jihatlarini rivojlantira olmaydi. Shu ma'noda shaxsda kreativ sifatlar namoyon bo'lishi uchun yangicha muhit, yetarlicha e'tibor va munosabat lozim. Bu esa ta'limga kompetentli yondashuvni tatbiq etishni taqozo etadi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida kreativ kompetentlikni rivojlantirish uchun ularda avvalo ijodkorlikka ehtiyojni shakllantirish, ularda ijodiy ehtiyojni anglashlariga imkon berish, ta'sir ko'rsatish va bu jarayonga qaratilgan ijodiy faoliyatni va unga ta'sir etuvchi muhitni yaratish talab etiladi. Umuman olganda, har bir inson hayotida ehtiyoj bilan qobiliyat uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida kreativlik sifatlarini tarbiyalash oliy ta'limning muhim pedagogik vazifalaridan bo'lib, uni talabalarning nostandart va noodatiy fikrlashi, har qanday muammoli vaziyatga tayyor turishi va boshqalarga nisbatan eng mukammal natijani ko'rsatishi hamda ta'lim jarayoni ishtirokchisi sifatida yangi g'oyalarni yaratishga qaratilgan faoliyati sifatida tavsiflash mumkin. U talaba shaxsining ma'lum yo'nalishda bilimlarni o'rganish va egallagan bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini tizimlashtira olish, amaliy faoliyatida muvaffaqiyatga yetaklovchi tarzda qo'llay bilishga yo'naltirilgan tayyorgarligi bo'lmish kompetensiya bilan uyg'unlashgandagina zamon talablariga mos kadrlar yetishib chiqadi.

Zamonaviy ta'lim tizimi o'z oldiga shaxsning o'z shaxsiy mustaqilligi, erkinligi, kreativligi, kompetentligi sifatini shakllantirishni asosiy vazifa qilib qo'ygan pallada, reproduktiv o'qitish strategiyasidan voz kechishi kerakligini, bunda ta'lim standartlariga mos keluvchi bilim, ko'nikma va malakalarni o'z ichiga olgan holda o'quv rejada belgilangan fanlarni tashkil etishda o'quv loyihalaridan foydalanishni nazarda tutadi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida kreativ kompetensiyani rivojlantirish metodikasiga yo'naltirilgan o'qitish tizimini zamon talablari asosida takomillashtirilgan modeli bu borada nazariya va amaliyotning birligi, pedagogik faoliyatga muvofiqligi bilan tajriba-sinov ishlari davomida o'z tasdig'ini topdi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida kreativ kompetensiyani rivojlantirish – professor-o'qituvchidan ta'lim-tarbiya jarayoniga ijodkorona yondashishni talab etuvchi, innovatsion g'oyalarni izlab topish va amalga oshirish, nostandart vaziyatlarga moslashtirish va talabalarda topshiriqlarni bajarishga nisbatan tezkorlik, aniqlik, betakrorlik, o'z-o'zini nazorat qilish, tashqi ta'sirlarga o'zining shaxsiy fikri bilan qarshi tura olish xususiyatlarini tarkib toptirishga yo'naltirilgan tizimli jarayoni ekanligi kelib chiqadi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida kreativ kompetensiyani rivojlantirish darajasini aniqlashda improvizatsiya, yangi g'oyalar bilan tashabbus ko'rsatish, nostandart tafakkur va tashabbuskorlik ko'nikmalarining shakllanganligi; ijodiylik, originallik, kutilmagan vaziyatlarga ijobiy munosabati, mustaqillik; kreativlikka moyillik, ijodkorlik, yaratuvchanlik va mukammallikka erishish istagining mavjudligi; maqsad yo'lida harakat va o'rgangan, bilgan bilimlarini amaliy faoliyatda muvaffaqiyatli qo'llay olish; yangi raqamli davrda o'zi va jamiyat uchun munosib, manfaatli o'rinni egallash yo'lidagi ijodiy faoliyati kabi mezonlarga va xususiyatlarga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi.

### Adabiyotlar / Литература / References:

1. Simpson, Edward H. "The Interpretation of Interaction in Contingency Tables." *Journal of the Royal Statistical Society. Series B (Methodological)*, vol. 13, no. 2, 1951, pp. 238–241.
2. Бабаева Л.М. Философско-эстетические основы восточной народно-профессиональной музыки: - Автореф. дисс. ... канд. филос. наук. – Т.: 1994. – 4-5 с.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida." PQ-112-son, 2 fevral 2022
4. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi. *Milliy va umumbashariy musiqiy qadriyatlarini rivojlantirish haqida*. 2022.
5. Абдуллин Э.Б., Николаева Е.В. Теория музыкального образования: Учебник для студ. высш. пед. учеб. заведен ий. — 3-е изд., испр. и доп. М.: Прометей, 2020. - 23 с.
6. Айдаров, Е. Б., Айдарова, А. Б. (2018). Процессы управления водными ресурсами распределённых ирригационных систем. Фундаментал фан ва амалиёт интеграцияси: Муаммолар ва истиқболлар. Республика илмий-амалий конференцияси, -Б. 151-153.
7. Брякова И.Е. Методическая система формирования креативной компетентности студентов-филологов педагогического вуза: автореф. дис. ... док. пед. наук / Брякова, Ирина Евгеньевна. – СПб.: 2010, – 13 с.
8. Ismoilova Z. Talabalarning kasbiy-pedagogik malakalarini shakllantirish: ped. fanl. nom. ...diss. – Т.: 2000, – 130 b.
9. Кадыров Р. Музыка и педагогика. "KOMPLEX PRINT" Т.2022.
10. Касымходжаева, Саида Батыровна. Формирование узбекского исторического музыкознания и музыкальной критики в XX веке : автореферат дис. ... кандидата искусствоведения : 17.00.02.- Ташкент, 1996.- 18 с.
11. Meliqo'ziyev I.M. Kino-teleoperatorlik mahorati (badiiy fotografiya shakllanish va taraqqiyot jarayonlari). Darslik. – Toshkent, 2017. –B.18.
12. Omanqulova Sh. Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini modulli o'qitish texnologiyalari asosida kasbiy kompetentligini takomillashtirish. diss-ya. Samarqand 2022.154-b.
13. Стулова Г.П. Дидактические основы обучения пению: монография / Г.П.Стулова. – Санкт-Петербург: Лань: Планета музыки, 2022. – 30 с.
14. Tangriyev L. Yoshlar siyosat subyekti: bandlik muammosi: Siyosiy fanlar nomzodi dis. avtoref. –Toshkent 2001. –B.89.
15. Qahharov N.V. Vokal asoslari. O'quv qo'llanma. - Toshkent.: "Iqtisod-moliya", 2008. –B.314

16. Qorayev S.B. Tirkashev N.I. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limning asosiy jihatlari. Academic Research in Educational Sciences. Scientific Journal Impact Factor (SJIF): 5.723. 2022.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 5/5 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).